TURIZMNING MINTAQAVIY BANDLIK VA KICHIK BIZNES RIVOJIGA TA'SIRINI BAHOLASH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

Muxammedov Sayfiddin Ahmadjon o'g'li

Annotatsiya. Tezisda turizmning mintaqaviy bandlik va kichik biznes rivojiga ta'sirini baholash yondashuvlari Ushbu tezisda mintaqa kesimida turistlar soni, joylashtirish vositalari, kichik biznes subyektlari va band aholi o'rtasidagi bog'liqlik baholangan. Buxoro viloyati misolida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda kichik biznesni tumanlar kesimida turizm tarmog'iga jalb etish bandlik samarasini oshirishning asosiy yo'nalishi sifatida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro viloyati, turizm, mintaqaviy iqtisodiyot, bandlik, kichik biznes, multiplikator samarasi.

Abstract. This thesis examines approaches to assessing the impact of tourism on regional employment and small business development. It evaluates the relationship between the number of tourists, accommodation facilities, small business entities, and the employed population at the regional level, using Bukhara Region as a case study. The study considers the engagement of small businesses in the tourism sector at the district level as a key strategy for enhancing the employment impact of tourism.

Keywords: Bukhara Region, tourism, regional economy, employment, small business, multiplier effect.

Аннотация. В тезисе рассматриваются подходы к оценке влияния туризма на региональную занятость и развитие малого бизнеса. На примере Бухарской области оценена взаимосвязь между числом туристов, средствами размещения, субъектами малого бизнеса и занятой частью населения в региональном разрезе. В исследовании привлечение субъектов малого бизнеса к туристической отрасли на уровне районов рассматривается как одно из основных направлений повышения эффекта туризма в сфере занятости.

Ключевые слова: Бухарская область, туризм, региональная экономика, занятость, малый бизнес, мультипликативный эффект.

Kirish. Turizm O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar eksporti, bandlik va kichik biznesni rivojlantirishning muhim drayveriga aylanmoqda. 2025-yilda mamlakatga qariyb 11,7 mln xorijiy turist kelib, yangi rekord qayd etildi; BMT Turizm tashkiloti (UN Tourism) hisobotlariga ko'ra, O'zbekiston turistlar oqimi o'sish sur'atlari bo'yicha dunyoning yetakchi beshta davlati qatoriga kirdi. 2026-yil birinchi yarmida turizm xizmatlari eksporti 2,8 mlrd dollarga yetdi, joylashtirish vositalari soni 7 364 tani (202,3 ming o'rin), turistik qishloqlar soni esa 48 tani tashkil etdi. Shu bilan birga, turizmning mintaqaviy iqtisodiy samarasi – ayniqsa, bandlik va kichik biznesga ta'siri – yetarlicha miqdoriy baholanmagan. Buxoro viloyati uchun 2026-yilda jami 9 mln turist (shundan 3,5 mln xorijiy) jalb etish vazifasi qo'yilgani mavzuning dolzarbligini oshiradi.

Asosiy qism. Tadqiqot Milliy statistika qo'mitasi, Turizm qo'mitasi va Buxoro viloyati ma'lumotlariga asoslanadi. Turizmning iqtisodiy ta'sirini baholashda kirish-chiqish (input-output) modeli va multiplikator yondashuvi (Dwyer va boshq., 2004), turizm hisobiga iqtisodiy o'sish gipotezasi (Balaguer va Cantavella-Jordá, 2002) qo'llaniladi. Mintaqalar kesimida turistlar soni, joylashtirish vositalari, kichik biznes subyektlari va band aholi o'rtasidagi bog'liqlik panel regressiya usulida baholanishi, shuningdek, turizmning sun'iy yo'ldosh hisobi (TSA) tamoyillaridan foydalanilishi rejalashtirilgan.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, birinchidan, talab tomoni tez o‘smoqda: 2026-yil yanvar–iyul oylarida 7749308 nafar xorijiy turist qayd etildi, asosiy oqim Qirg‘iziston, Qozog‘iston va Tojikiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu turizm xizmatlariga, ayniqsa, mehmonxona va umumiy ovqatlanish sohasidagi kichik biznesga barqaror talab yaratadi.

Ikkinchidan, yangi turizm loyihalarining bandlikka bevosita ta’siri cheklangan: 2026-yil yanvar–iyun oylarida 97 ta loyiha 200,2 mln dollar qiymatida ishga tushirilib, 2 134 ta ish o‘rni yaratildi (loyihaga o‘rtacha 22 ta ish o‘rni; bir ish o‘rniga taxminan 93,8 ming dollar). Bu ko‘rsatkich faqat yangi loyihalarni qamrab oladi va tarmoqdagi jami bandlikni emas, balki bevosita samarani aks ettiradi; bilvosita samara multiplikator orqali baholanadi.

Uchinchidan, hududiy nomutanosiblik saqlanmoqda. 2026-yil 2-aprelda o‘tkazilgan yig‘ilishda Buxoro viloyatida turizm faolligi asosan Buxoro shahrida to‘planganligi, Jondor, G‘ijduvon, Buxoro, Qorako‘l va Vobkent tumanlari imkoniyatlaridan yetarli foydalanilmayotgani qayd etildi. Viloyatda ishsizlik darajasi 4,7 foiz, qashshoqlik darajasi 6 foiz bo‘lib, 2026-yilda 73 ta yangi joylashtirish vositasi, 15 ta yangi turoperator va to‘rtta turizmga ixtisoslashgan mahalla tashkil etish rejalashtirilgan.

Xulosa. Turizm mintaqaviy bandlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatsa-da, uning samarasi turistlar oqimining hududiy tarqalishi va mahalliy kichik biznesning ishtirokiga bog‘liq. Quyidagilar taklif etiladi:

- turistik mahsulotlarni Buxoro shahridan viloyatning boshqa tumanlariga kengaytirish;
- kichik biznes subyektlari uchun turistlarni jalb etish xarajatlarini qisman qoplash (25 foizgacha, 500 mln so‘mgacha) kabi rag‘batlarni tumanlar darajasida targ‘ib qilish;
- turizm kadrlarini tayyorlash tizimini (jumladan, Krems universiteti bilan qo‘shma fakultet) mehnat bozori talabiga moslashtirish;
- viloyat darajasida turizmning bandlik multiplikatorini muntazam baholaydigan monitoring tizimini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Balaguer, J., & Cantavella-Jordá, M. (2002). Tourism as a long-run economic growth factor: the Spanish case. Applied Economics, 34(7), 877–884.
2. Dwyer, L., Forsyth, P., & Spurr, R. (2004). Evaluating tourism’s economic effects: new and old approaches. Tourism Management, 25(3), 307–317.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. (2026, 2-aprel). Buxoro viloyatida islohotlar samaradorligi va navbatdagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi. https://president.uz/en/lists/view/9069
4. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. (2026, 26-avgust). Turizm qo‘mitasi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 2026-yil birinchi yarmi maqsadli ko‘rsatkichlarini bajardi. https://gov.uz/en/uzbektourism/news/view/210647
5. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. (2026, 10-iyun). O‘zbekiston turistlar o‘sishi bo‘yicha dunyoning eng yaxshi beshtaligiga kirdi. https://gov.uz/en/uzbektourism/news/view/175790
6. Dunyo IA. (2026, 12-avgust). Uzbekistan welcomes more than 7.7 million foreign tourists in the first seven months of the year (Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida). https://dunyo.info/en/ekonomika/za-pervye-sem-mesyacev-goda-uzbekistan-posetili-bolee-77-milliona
7. Kun.uz. (2026, 3-aprel). Bukhara targets $3.3 billion in foreign investment – aims to slash poverty to 2 percent. https://kun.uz/en/news/2026/04/03/bukhara-targets-33-billion-in-foreign-investment-aims-to-slash-poverty-to-2-percent.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.